

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/360069351>

MARKAZIY OSIYODAGI INTEGRATSION JARAYONLARNING GEOSIYOSIY TAXLILI

Conference Paper · January 2016

CITATIONS

0

READS

12

1 author:



[Odiljon Tobirov](#)

Gulistan State University

36 PUBLICATIONS 2 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)

Some of the authors of this publication are also working on these related projects:



Geography, ecology, tourism and education [View project](#)

**TABIIY FANLAR:
NAZARIYA, TA'LIM USULLARI
VA AMALIYOTI**

Тошкент - 2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**TABIIY FANLAR:
NAZARIYA, TA'LIM USULLARI
VA AMALIYOTI**

**Professor-o'qituvchilar, magistrilar va iqtidorli
talabalarning ilmiy va ilmiy-uslubiy
maqolalari to'plami**

III

TOSHKENT - 2016

билан маскур курсни олий ўқув юртлари ўқув дастурларига киритиш бўйича ташкилий ишларни тезлаштириш лозим.

Ёрдамчи мактабларнинг VI, VII, VIII синфлари учун Х.Ваҳобов ва бошқалар томонидан дарслик ва ўқув қўлланмалари тайёрлаб нашр этилди.

География таълимининг мақсад ва вазифалари Давлат таълим стандартлари шарҳларида аниқлаб берилган. Яъни географик маданиятни шакллантириш географик карталардан моҳирона фойдаланишни ўргатиш табиат билан жамият муносабатларига комплекс ёндошишни англашмоқ ва ҳ.к.

MARKAZIY OSIYODAGI INTEGRATSION JARAYONLARNING GEOSIYOSIY TAXLILI

L.M.Abdunazarov, O.Q.Tobirov, M.B.Mamajonov

Mintaqaviy integratsiya jarayonlari, keyingi yillarda dunyoning turli mintaqalariga xos bo'lgan xolat bo'lib qoldi. Bunga misol qilib Yevropa qit'asidagi, Shimoliy Amerika, Osiyo va Tinch okeani, shuningdek boshqa mintaqalardagi integratsion jarayonlarni keltirib o'tish o'rinlidir. Ushbu tendentsiya Markaziy Osiyo davlatlarini xam chetlab o'tmadi va bu yerdagi integratsiya jarayonlari jahon iqtisodiy va siyosiy makonida shakllanib qolishning tobora murakkablashib borayotgan shart—sharoitlariga ushbu mamlakatlarning javobini aks ettirar edi.

Qozoq siyosatshunosi U.Kasenov fikricha, mintaqa ichidagi o'zaro siyosiy integratsiya alohida davlatlarning suverenitetini mustahkamlaydi. Jumladan u «Markaziy Osiyoda davlat suverenitetining mustaxkamlanishi sobiq respublikalarning rivojlanishlari ular o'rtasidagi davlatlararo integratsiya bilan birgalikda olib borilsagina mumkin bo'ladi. Markaziy Osiyo integratsiyasi va siyosiy muvofiqlashtirish muassasalarining samarali faoliyati xar bir davlatning iqtisodiy rivojlaninishini jadallashtirishga imkon beradi va shu bilan bir vaqtda ular o'rtasida mavjud bo'lgan va vujudga kelish ehtimoli bor bo'lgan qarama - qarshiliklarni xal etishga sharoit yaratadi» - degan edi.

Markaziy Osiyo davlatlari turli xalqaro tashkilotlar, yetakchi davlatlar bilan ikkiyoqlama va ko'pyoqlama uslubidagi siyosiy va savdo - iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashmoqda. Xususan, mintaqa respublikalarining barchasi BMT, EXXT, MDH, EKO kabi xalqaro tashkilotlar a'zosidir.

Bundan tashqari, mintaqa davlatlari tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida siyosiy va iqtisodiy sohalarni qamrab oluvchi mintaqaviy tashkilotlarni yaratishga katta e'tibor qaratdilar. Bu borada ularning faoliyatini ikki bosqichga bo'lish mumkin bo'ladi.

Birinchisi, 1991 yil oxirlaridan 1994 yil iyuligacha bo'lgan davr. Bu davrda MDH miqyosidagi markazdan qochish tendentsiyalari bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqa ichida o'zaro hamkorlik harakatlarni yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish mexanizmini shakllantirish borasidagi ishlarni

boshlashdi. 1994 yil yanvarida Qozog'iston va O'zbekiston yagona iqtisodiy makonni yaratish haqidagi Shartnomani imzolashdi. Oradan bir oy o'tgach bu shartnomaga Qirg'iziston ham qo'shildi va 1994 yil 30 aprelda Cho'lpon-Otada (Qirg'iziston) Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston davlat rahbarlari uch davlat o'rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish to'g'risida shartnoma imzolashdi.

Shundan keyingi yillarda integratsiya jarayonlari rivojlanishining eng muhim dastagi Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston respublikalarining Davlatlararo Kengashi bo'lib qoldi. Davlatlararo Kengash a'zolari dastlabki paytdan boshlab o'z maqsadlari haqida e'lon qilishdi, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, xuquqiy, xarbiy va boshqa sohaarda yaqindan hamkorlik qilish; mintaqaviy va xalqaro darajadagi tashqi siyosiy faoliyat sohasida bir —biri bilan kelishgan xolda harakat qilish. Lekin ushbu e'lon qilingan maqsadlarning barchasiga ham erishildi deb to'la aytib bo'lmaydi.

Keyingi yillarda ham mintaqadagi uch davlat o'rtasida o'zaro integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish borasida doimiy ish olib borildi. Buning natijasi o'laroq 1997 yil 10 yanvarida Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH) a'zolari, ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'zaro «Abadiy do'stlik to'g'risida» shartnoma imzoladilar. Keyinchalik esa, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat boshliqlarining 2001 yil 27-28 dekabrda Toshkentda e'lon qilingan Qo'shma bayonotida esa Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamdo'stligini Markaziy Osiyo Hamkorligi (MOH) tashkilotiga o'zgartirish to'g'risida qaror qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad integratsiya jarayonlari qamrab oluvchi sohalarni yanada kengaytirish va ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashishini ta'minlashdan iborat edi. 2002 yil 28-fevralda Olma-Ota shahrida to'rt mamlakat prezidentlari Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotini ta'sis etish to'g'risida shartnoma imzoladilar.

Shu bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlarga Turkmanistondan tashqari mintaqaning barcha davlatlari jalb etildi. Turkmaniston esa mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mintaqadagi qo'shnilari bilan munosabatlarda anchagina o'zini chetga tortish siyosatini yurita boshladi. Turkmanistonning bunday faoliyat yuritishiga olib kelgan bir qator omillar mavjud. Ushbu respublika sobiq ittifoqdan aholi soniga nisbatan juda katta hududni meros qilib oldi. Bundan tashqari bu hudud tabiiy qazilma boyliklari bo'lgan neft va gaz bo'yicha katta zahiralarga ham ega. Shu boisdan ham mamlakat rahbariyati rivojlanishda betaraflik siyosatini qabul qilib, Eron bilan hamkorlik qilishni afzal ko'rdi.

Bular bilan bir qatorda, mintaqaga turli yo'nalishdagi ekstremistik kuchlarning nigoxi qaratilishi bilan birga, ba'zi chet davlatlar xam bu yerdagi faoliyatlarini ancha jonlantira boshladilar. Bundan tashqari, mintaqada bir necha yillardan beri bevosita jangovor harakatlar tinmayotgan notinch Afg'oniston bilan bevosita qo'shni bo'lib, u yerdagi mojarolar agar o'z vaqtida oldi olinmasa Markaziy Osiyoga xam ko'chib o'tishi extimoli ham bor

edi. Shuning uchun mintaqa mamlakatlari, ayniqsa O'zbekiston, xavfsizlik masalasi bo'yicha MDH davlatlari o'zaro hamkorliklarini yuqori pog'onaga ko'tarish zarurligini ta'kidlashgan edi.

Mintaqa davlatlarining kollektiv xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan boshqa bir faoliyatlari Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) doirasida bo'lib, bu tuzilmaga 1996 yilda Rossiya, XXR, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida Shanxayda imzolangan chegara yaqinida xarbiy sohada o'zaro ishonchni mustaxkamlash to'g'risidagi kelishuvlari orqali asos solingan edi. Keyinchalik bu uyushmaga O'zbekiston xam qo'shildi va 2001 yil 15 iyunda Shanxay shaxrida bo'lib o'tgan 6 davlat (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston) rahbarlari uchrashuvida «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» tashkil etilganligi to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi.

Shuni xam esdan chiqarmasligimiz kerakki, Markaziy Osiyo geografik jixatdan okeanlar va qirg'oqbo'yi davlatlaridan uzoqda joylashganligi uni global muammolardan chetda qolishiga sharoit yaratmaydi. Markaziy Osiyo bir vaqtning o'zida Yevrosiyodagi O'rta Sharq, Osiyo —Tinch okeani, Janubiy Osiyo xamda Yevropa kabi mintaqalarning geosiyosiy omili xisoblanadi. Mintaqa tabiiy geosiyosiy chegaralariga ega, bu bir tomondan Rossiya va Xitoy o'rtasida «siqilib» qolganligi, ikkinchi tomondan janubda musulmon davlatlar bilan chegaradoshligi.

XX asr oxirlariga kelib dunyo siyosiy tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlar va Markaziy Osiyo mintaqasida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi natijasida, bu makon bir qator yetakchi davlatlar e'tiborini o'ziga qaratdi. 90-yillarning boshlarida siyosatshunoslar tomonidan bu hududda «Katta o'yin»ning qayta jonlanishi bashorat qilina boshlandi. Yangicha talqindagi «o'yin»ning ishtirokchilari sifatida esa AQSh, Rossiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, shuningdek Turkiya, Eron, Pokiston va Hindistonlarning qatnashuvi ta'kidlab o'tildi.

Markaziy Osiyo mintaqasining tabiiy qazilma boyliklarining (ayniqsa, neft va gazning) katta zaxiralariga ega ekanligi, va hududning geostrategik jixatdan joylashgan o'rni yuqoridagi davlatlarni ushbu mintaqadagi jarayonlarga ishtirok etish istagini yanada oshirib yuborardi. Chunki yuqorida keltirib o'tilgan davlatlarning asosiy maqsadlari geosiyosiy tomondan Yevroosiyoning markaziy qismi ustidan nazorat qilish bo'lsa, geoiqtisodiy jixatdan esa mintaqaning resurslari va transport aloqalari ustidan nazoratni o'rnatish xisoblanadi. Mintaqada yuzaga kelayotgan navbatdagi «katta o'yin» nafaqat ishtirokchilarining sonini oshganligi bilan, balki ularning bu o'yindan ko'zlagan maqsadlarining turli tumanligi bilan xam ajralib turadi. Yana bir farq yangi o'yinda qaysidir jixatlar bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zlari xam ishtirokchi sifatida qatnashayotganlarida ko'rinadi, vaxolanki ilgari ikki davrda bunday xolat ko'zga tashlanmagan.

Umuman olib qaraganda, Markaziy Osiyo mintaqasi boshqa davlatlarning e'tiborini o'ziga jalb qilganligini quyidagi omillar bilan izohlashimiz mumkin:

- ushbu davlatlar Yevrosiyoning Osiyo qismida juda muhim geostrategik joylashuviga; ular hududidan eng muhim yer va xavo kommunikatsion liniyalari o'tadi;
- mintaqa katta miqdordagi qimmatli metallar xom-ashyosi va energetik resurslarga ega, ayniqsa Kaspiydagi neft va gaz zaxiralarini inobatga oladigan bo'lsak;
- bu mintaqa hozirgi paytgacha to'liq egallab olinmagan katta hajmdagi ichki bozorga ega;
- bu davlatlarning ishlab chiqarish va kommunikatsiya tarmoqlarini nazorat qilish orqali, qo'shni davlatlarga xam ta'sir o'tkazish mumkin;
- mintaqa juda katta miqdordagi investitsiyalarni o'zlashtira oladi, ayniqsa xom-ashyo qazib olish va eksport qilish tarmoqlari;
- ko'p yillik Rossiya ta'sirining pasayishi, bu mintaqada boshqa davlatlar uchun o'z faoliyatini aktivlashtirish va o'z ta'sir doirasiga olish imkoniyatini yaratmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro yaqinlashuvi ko'plab omillarning bir-biriga ta'sirlari natijasida kelib chiquvchi qarama - qarshiliklar orqali ro'y bermoqda. Ushbu omillar sirasiga — iqtisodiy, tarixiy — madaniy, axborot, xarbiy strategik, shuningdek, turli davlatlarning ta'sirlarini kiritish mumkin.

O'ZBEKISTON MASHINASOZLIK SANOATINI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

O.Qo'chqarov, M.Ergasheva, S.Abduqodirova

Prezident Islom Karimovning 2011 yil 29 iyulda qabul qilingan "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha 2011-2013-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq uyushmaning deyarli barcha korxonalarida yangi turdagi import o'rnini bosuvchi raqobat bardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish maqsadida modernizatsiya ishlari davom ettirilmoqda. "O'zavtosanoat" AKVI Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasining birinchi bosqichi doirasida berilgan ma'lumotlariga ko'ra, kompaniyaning barcha modellari bo'yicha mahalliyashtirish darajasi 50% dan oshdi. 20 ta qo'shma korxonalar bamperlar, o'rindiqlar, lok-bo'yoq mahsulotlari, yoqilg'ibaklari, o'g'itlar, oynalar vaboshqalarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirilgan. Asakadagi bosh avtozavodiga 98 ta butlovchi qismlar hamda detallarni yetkazib beruvchidan 76 nafari kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlaridir. Korxonaning dastlabki quvvati yiliga 2000 ta avtotransport vositalari ishlab chiqarishga imkon beradi. Avtomobillar dastlabki bosqichda Samarqand avtomobil zavodi hududida yig'iladi.

"MANNutzfahrzeuge" kompaniyasi ilg'or Yevropa texnologiyalari va tegishli texnik xizmat ko'rsatishni tatbiq etishdan tashqari, "JVMAN Auto-Uzbekistan" mahsulotlarini o'zining distribyutorlik tarmoqlari orqali MDH davlatlariga eksportga